


**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishida ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida
dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
3.	Modifikatsiyalangan loy minerallari asosidagi materiallarning sorbsion va fotokatalitik xususiyatlarini yaxshilash texnologiyasini ishlab chiqish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: tadqiqotlar jarayonida mahalliy xomashyolarni 650–700°C haroratda termik va kimyoviy modifikatsiyalash hamda ularning qatlamlararo strukturasi bilan 12–20 nanometr o‘lchamdagi titanium dioksid nanotarkiblarini biriktirish texnologiyasi ishlab chiqiladi; modifikatsiyalash natijasida loy minerallarining solishtirma sirt maydoni 20.2 m²/g dan 168.5 m²/g ga, ya’ni 8.3 baravarga kengayishiga hamda sorbsion sig‘imi 3.8 baravarga oshishiga erishiladi; qoplama sirtining suv bilan namlanish burchagi 68 darajadan 7 darajadan kam bo‘lgan o‘ta gidrofil holatga tushirilib, sirt 60 daqiqa ichida organik iflosliklardan 94.8 foizga tozalanishi hamda havodagi azot oksidlari 120 daqiqada 81.2 foizga zararsizlantirilishi amalga oshiriladi. Issiqlik-fizikaviy tahlillar orqali qoplamalarning infraqizil radiatsiyani 86.4 foizga qaytarishiga, bu esa yozgi issiq sharoitda bino fasadi haroratini 12.5°C ga pasaytirib, sovitish tizimlari uchun elektr energiyasi sarfini 24.3 foizga tejash imkonini berishiga erishiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. O‘zsanoatqurilishmateriallari uyushmasining hamkor korxonalaridan sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish. “Ilmiy maqolalar xalqaro e’tirof etilgan Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazalariga kiritilgan nufuzli jurnallarda hamda OAK ro‘yxatidagi respublika va xalqaro ilmiy nashrlarda hamda konferensiya to‘plamlarida chop etiladi”. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo‘llab quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.